



El-yurt taqdiri mening taqdirim

Yuldashev Xurshid Nozim o'g'li

Til o'rgatish kafedrası O'zbekiston Respublikasi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

xurshidyuldashev1793@gmail.com

Annotatsiya: O'qituvchilik kasbi nafaqat bilim berishdan, balkim vatanga va jamiyatga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otishdan iboratdir. Ingliz tili o'qituvchisini el-yurt rivojiga qo'shadigan hissasi alohida e'tiborga ega. Negaki, bu til dunyoviy bilim xazinasini ochadigan kalit bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv zamonida ingliz tili kundan kunga muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tilini bilgan insonga ko'plab imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Chet elga borib o'qish, malaka oshirish, ishlash va biznes qurish shu imkoniyatlarning bir nechta misoli xolos. Mamlakatimizda ham ingliz tilining mavqeyi oshib bormoqda. Deyarli hamma maktab, akademik litsey va oliygohlarda bu til faol o'qitilib kelinmoqda. Muhtaram prezidentimiz raisligida 2021-yilning 6-mayda chet tillarini o'rgatish tizimini takomillashtirish va sohaga oid ustuvor vazifalarni belgilab olishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilish davomida xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish va maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2ta chet tilini mukammal bilishlari shart degan so'zlari chet tillari, xususan, ingliz tilining jamiyatdagi bebaho o'rnidan darak beradi. Shu borada bir savol tug'ilishi mumkin "nega ingliz tiliga shuncha e'tibor ko'rsatilib kelmoqda va qanday qilib bu til davlatimiz va jamiyatimiz rivojiga hissa qo'shadi?". Savolga javobni esa mening o'z kasbim va shu sohadagi yutuqlarim orqali topish mumkin.



Men, Xurshid Yuldashev, O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida ingliz tilidan dars beraman. Bu sohaga kirib kelishim ham o‘zgacha bo‘lgan. Maktab davrlarida men sinfdoshlarimga ingliz tili fanidan uy ishlariga yordam berardim va bundan zavq olardim. Ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishim katta edi lekin bu tilga muhabbatim 2017-yil Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi bo‘lganimda uyg‘ongan. Talabalik davrida ham o‘qib ham “Fast and Easy” o‘quv markazida ingliz tili va xalqaro IELTS til sertifikatiga tayyorlash kurslaridan dars berar edim. O‘quvchilarimning ko‘pchiligi maktab o‘quvchilarini tashkil etib, kurslarni oxirigacha bitirganlar ingliz tilida ravon gapirib, IELTS til sertifikatiga ega bo‘lishgan. Bu xalqaro sertifikat ularga mahalliy oliy o‘quv yurtlarida bo‘lib o‘tadigan ingliz tili imtihonidan eng yuqori ball berib, ularning talaba bo‘lishiga katta hissa qo‘shadi. Shuningdek, bu sertifikat chet elda o‘qish uchun talabalarga imkoniyat yaratib beradi va sertifikatning baliga muvofiq ravishda o‘qish xarajatlari davlat tomonidan to‘liq yoki qisman qoplab beriladi. Yuzdan ko‘p o‘quvchilarim hozirda nufuzli oliygohlarda talaba bo‘lishgan. Westminster, Webster, INHA, Jahon tillari va Nizomiy nomidagi pedagogika kabi universitetlar shular jumlasidandir. Shogirdlarim orasida “El-Yurt umidi” jamg‘armasining stipendiyasiga ega bo‘lganlar, AQSHda o‘qiyotganlar hamda “Flex Exchange Program” dasturi orqali New York va Michigan shtatlarida ta’lim olganlar ham kam emas. Bu maqtanish emas, aksincha yoshlarimizning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqidan dalolatdir.

Ingliz tili orqali mening o‘quvchilarim kelajakda o‘z sohalarini mukammal o‘rganib professional bo‘lishiga ishonchim komil. Negaki, til bilgan inson har tomonlama rivojlanishni boshlaydi. Til o‘rganish mobaynida odamda birinchi navbatda, fikrlash qobiliyati yaxshilanadi, xotira kuchayadi va dunyoqarash o‘zgaradi. Til o‘rgangan odam o‘z oldiga maqsad qo‘yadi va shu maqsadga erishish uchun harakatlar strategiyasini tuzib oladi. Ingliz tilini bilgan yoshlar o‘z ustida ishlaydi va vaqtini behudaga sarflamaydi. Bunday yoshlar jinoyat va yomon yo‘llardan nari yurishadi hamda vatanparvarlik tuyg‘usi bilan



yashaydi. Yuqorida keltirib oʻtilgan chet elda oʻqish imkonini beradigan dasturlar qatnashchilari vatanimizga qaytib kelib, Amerika, Britaniya yoki Yevropaning nufuzli universitetlarida oʻrgangan bilim va koʻnikmalari asosida olgan yangi va innovatsion gʻoyalar va tashabbuslar bilan Oʻzbekiston rivojlanishi va taraqqiyotiga katta hissa qoʻshishmoqda. Biz yoshlar bilim olishi uchun qilgan sarmoyamiz eng foydali sarmoya hisoblanadi negaki, bilimga tikilgan investitsiya, albatta, bir kun oʻz natijasini beradi. Hozirgi vaqtda yurt kelajagi boʻlmish yoshlar oʻz ustida ishlab, bilimli boʻlishga harakat qilmas ekan jamiyatda oʻz oʻrnini topolmaydi. Men oʻz kasbimdan faxrlanaman chunki bilamanki, talabalarimga ingliz tili oʻqitish, bilim va yoʻnalish berish, vatanga mehr-muhabbat tuygʻusini shakllantirish bu meni vatanim, Oʻzbekiston, oldida turgan burchimdir. Toki men va hamkasblarim burchimizni bajarar ekanmiz, vatanimiz va jamiyatimiz rivojlanishdan toʻxtamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yilning 6 may kuni chet tillarini oʻqitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yigʻilishi.
2. Axmedova Odinaxon Inomovna.- Ingliz tilini oʻqitish va oʻrganishda zamonaviy texnologiyalaran foyalanish.-Oriental renaissance innovative, educational, natural and social sciences-2022
3. <https://prezident.uz>
4. <https://uzbekistan.americancouncils.org/flex-en>